

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARIDA
KREATIV FIKRLASH, IJODIY FAOLLIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI
ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0007-9591-9739>
e-mail:
fazliddinyaqubov46@gmail.com

IMPROVEMENT OF SCIENTIFIC RESEARCH
ACTIVITY BY DEVELOPING COMPETENCIES OF
CREATIVE THINKING AND CREATIVE ACTIVITY IN
PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, associate professor Uzbek state university of physical culture and sports, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПУТЕМ
РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ КРЕАТИВНОГО
МЫШЛЕНИЯ, ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У
СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И
СПОРТУ

Якубов Фазлиддин Мухитдинович, доцент Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlanish, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlanish ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida yangiliklarni kiritish, samarali metodlarni ishlab chiqish va yangi g'oyalarni ilgari surishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, kreativ, kreativ fikrlash, ijod, ijodiy faoliyat, ilmiy tadqiqot, kasbiy kompetentlik.

Abstract: It plays an important role in the development of creative thinking and creative activity competencies in specialists in physical culture and sports, and in improving research activities. The formation and development of such competencies contributes to the introduction of innovations in the process of conducting scientific research, the development of effective methods, and the promotion of new ideas.

Key words: specialists in physical culture and sports, creative, creative thinking, creativity, creative activity, scientific research, professional competence.

Аннотация: Развитие компетенций креативного мышления и творческой деятельности у специалистов по физической культуре и спорту играет важную роль в совершенствовании научно-исследовательской деятельности. Формирование и развитие таких компетенций способствует внедрению инноваций в процессе проведения научных исследований, разработке эффективных методов и продвижению новых идей.

Ключевые слова: специалисты по физической культуре и спорту, креативное, творческое мышление, творчество, творческая деятельность, научные исследования, профессиональная компетентность.

KIRISH. Dunyo ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik va axborot texnologiyalarining zamonaviy modellarini maqsadli hamda manzilli qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativ fikrlash va ijodiy faollik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativ fikrlash va ijodiy faollik kompetentligini kompleks rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi. Chunki, O‘zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo‘nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan yosh va tashabbuskor kadrlarga bog‘liq”[1].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy sport tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. Kreativ fikrlash va ijodiy yondashuv sportning o‘zi kabi tez o‘zgaruvchan va talabchan bo‘lgan sohada eng yangi usullarni va metodlarni yaratish, muammolarga yangi qarashlarni taklif qilish hamda sportchilarining rivojlanishini maksimal darajada qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativlik kompetensiyasi quyidagi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi: nostandart qarorlar qabul qilish; oldin o‘zlashtirilmagan usullardan foydalanish; o‘ziga xos individual uslubni yaratish; mashg‘ulotlar jarayonida yangi g‘oyalarni qo‘llash.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha dunyo olimlari bir qancha izlanishlar olib borgan. Bu izlanishlar asosan sportda yangi yondashuvlar, texnologiyalar, pedagogik metodlar va ijtimoiy omillarni kiritish orqali ijodiy faollikni oshirishga qaratilgan.

Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” deb ta’rif beradi[2]. John Devey esa ta’lim va pedagogikada kreativ fikrlashning rivojlanishini targ‘ib qilgan. U “tajriba orqali o‘rganish” deb nomlangan interaktiv o‘qitish metodini kreativlikni rivojlantirishda muhim deb hisoblagan[3]. Yana bir olim Howard Gardner o‘zining “Ko‘p intellektlar nazariyasi”ni ishlab chiqqan va bunda har bir odamda turli xil intellektual qobiliyatlar mavjudligini ta’kidlagan. U jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda musiqiy yondashuvni ilgari surgan[4]. Gardnerning bu nazariyasi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilishga yordam bergan. Siegfried Engelmann kreativlikni rivojlanishish uchun “ko‘rish va anglash” metodini taklif qilgan [5]. Bunda bolajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ijodiy faollik kompetentligini rivojlantirish uchun ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga asosiy e’tiborni qaratish lozimligini ta’kidlagan.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzi yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash, shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Yana bir olim A.Maslou esa kreativlikni barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof-muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat, deb hisoblagan[6].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faollik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha an’anaviy yondashuvlardan tashqari yangi va innovatsion

metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu yangi va innovatsion metodlar ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga, sportchilarni yangi sharoitlarda o'zlarini sinab ko'rishga undashga va turli muammolarni hal qilishda innovativ usullarni qo'llashga ko'maklashadi. Bunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan quyidagi yo'nalishlarni taklif etamiz:

1) Game-based learning (O'yinda asoslangan o'qitish). Bu uslubda o'quv jarayonida turli o'zin elementlarini qo'llash orqali motivatsiya va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Masalan: dars mashg'ulotlarida sportchilar o'zlarini raqiblar bilan raqobatlashadigan sharoitda sinab ko'rishadi va ijodiy fikrlashni o'rganadilar.

2) VR technologies (Virtual reallik asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish). Bunda sportdagi yangi texnologiyalar virtual reallikda qo'llaniladi. Bu real hayotda bajarilishi qiyin bo'lgan vazifalarni virtual muhitda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, futbolchilar va basketbolchilar uchun VR texnologiyalari yordamida real o'yindagi muhim vaziyatlar va qarorlarni ko'rib chiqish orqali ijodiy fikrlash va rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

3) Integrating arts and sports (San'at va sportni integratsiyalash). Bu uslub jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga ijodiy va estetik yondashuvlarni o'rgatish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. San'at elementlarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga kiritish orqali sportchilarni yangi fikrlash usullarini sinab ko'rishga rag'batlantirish mumkin. Masalan, raqs orqali jismoniy moslashuvchanlik va ritmni yaxshilash mumkin. Bu shuningdek, sportchilarning ijodiy va estetik fikrlashini rivojlantirishga ham olib keladi.

4) Interactive trainings and exhibitions (Interaktiv mashg'ulotlar va ko'rgazmalar). Bu yondashuvda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislar onlayn platformalar yoki mobil ilovalar yordamida o'z faoliyatini tahlil qilishga urinib ko'rishi mumkin bo'ladi. Masalan, sportchilar o'zining ko'rsatkichlarini interaktiv tarzda kuzatib borib, o'ziga xos ijodiy yondashuvlar va takliflar yaratishlari mumkin.

5) Innovations jamoaviy ishlarga rag'batlantirish. Bu uslub jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ijodiy faoliyka jalb qilish uchun jamoaviy ishslash rag'batlantiriladi. Jamoaviy ish orqali sportchilar o'zaro fikr almashadilar va yangi g'oyalilar yaratadilar.

XULOSA. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirishda noodatiy yo'nalishlar, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak. Ma'ruza. Xalq so'zi gazetasi. 19.12.2018. B.3-4.
2. Veksler D. Structure of intellect. California. 2018. P.138-142.
3. John Devey. Democracy and Education. 2016. P. 26-28.
4. Howard Gardner. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. 1983. P. 310-313.
5. Siegfried Engelmann. Teaching Reading. 2005. P.124-128.
6. Maslow A. Toward a Psychology of Being. New York, Van Nostrand. 1998. – 354 p.

